

**YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM ISLOHOTLARI VA YOSHLAR
HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISHGA INNOVATSION PEDAGOGIK
YONDASHUVLAR**

*Fan va texnologiyalar universiteti
Boshlang‘ich ta’lim 1-kurs
talabasi Adilova Saida,*

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekiston huquqiy ta’lim tizimidagi islohotlar, yoshlarning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, ularda tizimli tahliliy tafakkurni shakllantirishda samara beruvchi zamonaviy innovatsion pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Har bir yondashuvning huquqiy ta’lim tizimida foydalanish imkoniyatlari misollar yordamida bayon qilingan.

**ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ ДЛЯ
ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ**

Аннотация: В статье анализируются реформы в системе юридического образования Нового Узбекистана, современные инновационные педагогические подходы, которые эффективны в повышении правовой грамотности и правовой культуры молодежи, формировании у них системного аналитического мышления. На примерах описаны возможности использования каждого подхода в системе юридического образования.

Ключевые слова: правовая культура, междисциплинарный подход, “эффект бабочки”, кластерный подход, интеграция и дифференциация дисциплин, синергетика, инкорпорация, междисциплинарный подход, гражданское общество.

**EDUCATIONAL REFORMS IN THE NEW UZBEKISTAN AND
INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACHES TO IMPROVE THE LEGAL
CULTURE OF YOUNG PEOPLE**

Annotation: The article analyzes the reforms in the legal education system of New Uzbekistan, the modern innovative pedagogical approaches that are effective in improving the legal literacy and legal culture of young people, and forming a systematic analytical thinking in them. The possibilities of using each approach in the legal education system are described with the help of examples.

Key words: legal culture, interdisciplinary approach, "Butterfly effect", cluster approach, integration and differentiation of disciplines, synergetics, incorporation, cross-disciplinary approach, civil society.

Kalit so‘zlar: huquqiy madaniyat, fanlararo yondashuv, “Kapalak effekti”, klaster yondashuvi, fanlarning integratsiyalashuvi va differensiyatsiyasi, sinergetika, inkorporatsiya, kross-disciplinar yondashuv, fuqarolik jamiyati.

Tarixdan ma'lumki, hukumatlar amalga oshirayotgan islohotlarning samaradorligi mazkur islohotlar maqsadi va mazmunining shu mamlakat fuqarolari tomonidan anglab yetilishi darajasiga bog‘liq bo‘lgan. Shu boisdan ham, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, raqobatbardosh, har tomonlama yetuk, salohiyatli, vatanparvar hamda o‘z milliy an’analariga sodiqlik ruhida kamol topgan kadrlarni taylorlash masalasi barcha mamlakatlar uchun doimo diqqat markazidagi hamda davlat siyosati darajasidagi masala bo‘lib kelmoqda.

Mamlakatimizda ilmiy va pedagogik faoliyatda fanlararo yondashuv masalalari va istiqbollarini M.N.Abdullayeva, G.G‘.G‘affarova, G.O.Jalalovalar tomonidan keng ilmiy-falsafiy jihatdan o‘rganilgan. Mualliflar tadqiqotlarida fanlararo yondashuv masalasiga “Kapalak effekti” tarzida baho bergenlar. Chindan ham bir qarashda bu masalalar arzimas, kichik bo‘lib tuyulsada, sekin-asta katta natijalarga turtki bo‘lishi, ulkan muvaffaqiyatlar olib kelishi aniq. “Fanlararo yondashuv, turli sohaviy bilimlardagi aloqadorlik bir obyektni turli nuqtai nazardan tekshirish zarurati tug‘ilganda yuzaga keladi”.[4] Ma'lumki, fan rivojlanishi ilmiy tadqiqot usullari, metodlarining o‘zgarishlari bilan bog‘liq.

Rivojlanishning har bir davriga xos bo‘lgan falsafiy-metodologik asoslari, tafakkur uslublari bor. X.Jeykobs va J.Borlandlarning fikricha, “fanlararolik – muayyan mavzu, muammo yoki hodisani ko‘rib chiqish uchun bir nechta ilmiy fanlarning metodologiyasi va terminologiyasini o‘z ichiga olgan bilim turidir”.[5] E’tibor berib qarasak, bu yondashuvdan biz ko‘p o‘rinda foydalanib kelamiz, masalan bu narsa huquqshunoslik terminologiyasida “guvohlik immuniteti”, “huquqiy immunitet”, “huquqiy media”, “adabiy o‘g‘rilik”, “yurist etikasi”, “akustik ifloslanish”, “alimentni indeksatsiya qilish” kabi atamalarning qo‘llanilishida, shuningdek huquqiy fanlar mashg‘ulotlarida boshqa fanlar metod va terminlaridan, yutuqlaridan muayyan darajada foydalanishimizda ko‘rinadi. Ana shundan kelib chiqib huquqiy fanlarni o‘qitish uslubiyotida ham boshqa (asosan, auditoriyaga yaqin bo‘lgan) fan materiallaridan, uslubiyotidan ham foydalanish, bu fan o‘qituvchisi bilan ham “yagona maqsad” yo‘lida hamkorlik qilish (klaster yondashuvi) samarali bo‘ladi, deb ishonamiz.

Zamonaviy pedagog nafaqat uslubiy fikrlash va mustaqil tadqiqot ishlarini olib borish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak, ayniqsa keng tanlov dasturlari, darsliklar,

o‘qitish texnologiyalari kontekstida, balki ijodiy qobiliyatlarga ham ega bo‘lishi talab qilinadi.

Ta’lim jarayonlariga zamonaviy yondashuvlarni keng joriy qilib borish masalalari ko‘plab pedagog olimlarimiz tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, oldimizda ularni huquqiy fanlar doirasiga yo‘naltirish masalasi(imkoniyatlari) turibdi. Quyida an’anaviy yondashuvlardan ayrimlarini huquqiy fanlarga yo‘naltirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz:

Tizimli-strukturaviy yondashuv. Tizimli-strukturaviy yondashuv shundan iboratki, o‘rganish predmeti o‘zaro bog‘langan elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida qaralib, birinchi navbatda bu elementlar orasidagi munosabatlar va o‘zaro ta’sir o‘rganiladi.

Bu yondashuvda o‘rganilayotgan obyektni butun bir olam tizimida tutgan o‘rni, o‘zaro bog‘liqligi va ahamiyati kabi masalalar umumiyligidan xususiylikka tomon metodi yordamida yoritiladi.

Tipologik yondashuv esa o‘rganilayotgan obyektning shu turdagি boshqa obyektlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kross-disciplinar yondashuv huquqiy ta’lim boshqa fanlar bilan bog‘liq jihatlarni o‘z ichiga oladi, masalan, iqtisod, siyosat va ijtimoiy fanlar. Bu yondashuv talabalarga huquqiy muammolarni kengroq kontekstda tushunishga yordam beradi.

Tarixiy yondashuv talaba-o‘quvchilarning bir necha fanlardan olgan bilimlarini o‘zaro birgalikda qo‘llab umumiy xulosa chiqarishga xizmat qiladi, mustaqil, tizimli tahliliy fikrlash qobiliyatining ortishiga, masalaga turli nuqtai nazardan yondoshishga chorlaydi. Bunda bevosita konstitutsiyaviy huquq fani materiallarini davlat va huquq tarixi hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarix fani ma’lumotlariga tayangan holda o‘rganishadi. Konstitutsiyaning har bir normasini o‘rganishda uni qabul qilinishining tarixiy zarurati, ahamiyati ham tushunib olinsa tahliliy tafakkur, tizimli tahlil qobiliyati rivojlanadi, ma’lumotlar xotiraga mustahkam joyланади. Bu bilan chuqur bilim va keng dunyoqarashga ega kadrlar taylorlash siyosatiga munosib hissa qo‘shiladi, deb ishonamiz.

Xalqaro huquqiy masalalarga oid mavzularda ham bu yondashuvdan foydalanish nafaqat tarixiy-tahliliy fikrlashni, qolaversa huquq normasi qabul qilinishi ijtimoiy zarurat bo‘lganligiga e’tibor qaratadi. Masalan, AQSH da 1913- yilda Sanoatdagи ishchilar mehnatiga haq to‘lashni faqat pul ko‘rinishida amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida to‘loymi tovar bilan amalga oshirgan fabrika egalari uchun jinoiy jazo chorasi belgilangan. Bu fakt ham mazkur qonunning ijtimoiy ehtiyoj mevasi ekanligini ko‘rsatadi, Talaba-o‘quvchilarning tarix fanidan olgan bilimlarini huquqiy fanlarda qo‘llash ko‘nikmasi ortadi. Mazkur yondashuvlarni ta’lim jarayonida qo‘llashda albatta amaliy yo‘naltirilganlik tamoyiliga amal qilish talab etiladi. Huquqiy fanlarni

o‘qitishda amaliy yo‘naltirilganlik tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan ishlarning maqsad va natijalariga samarali erishish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish zarur, deb hisoblaymiz:

1. O‘qitish mahoratining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uzlusizlik, olingan bilim va ko‘nikmalardan boshqa dars mashg‘ulotlarda ham foydalanimishi, mustahkamlanishi bilan belgilanadi. O‘qituvchi malakani egallash darajasini doimiy ravishda kuzatib borishi kerak.

2. Ta’lim muassasasida talaba-o‘quvchilarning ijtimoiy amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ishlarini bir necha fan topshiriqlarining o‘zaro muvofiqlashtirish orqali ham amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Masalan, statistik ma’lumotlar bilan ishlashga oid, my.gov.uz, lex.uz kabi portallar bilan ishlashga oid, qolaversa advice.uz, bolahuquqlari.uz kabi saytlar ma’lumotlaridan foydalangan holda kazus (muammoli masala)lar tuzib kelish, Crossword Forge kabi ilovalardan foydalangan holda mavzuga aloqador krossword shakllantirish kabi topshiriqlarda informatika(axborot texnologiyalari) fani topshiriqlari bilan muvofiqlashtirish mumkin.

3. Amaliy ishni tashkil etishda talaba-o‘quvchilar harakatlari ravon tarzda tushuntirilishligi hamda aniq belgilangan maqsadga bo‘ysunishi kerak.

4. Amaliy ish uchun topshiriqlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin: - qisqacha talablar (“kazus tuzing”, “muayyan huquq sohasiga aloqador huquqiy manbalarini yig‘ing”, “normativ-huquqiy hujjatlarni norasmiy tarzda turli shakllarda inkorporatsiya qiling);

- ko‘rsatma va harakatlar rejalar (“mavzuga aloqador keyslarni jamoaviy tahlil qiling”);
- “WENN diagrammasi” asosida qiyoslanayotgan obyektlarning o‘ziga xos va umumiyl xususiyatlarini ochib bering;
- “BBB” metodiga asoslanib o‘rgangan mavzulariga munosabat bildirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Huquqiy yetuklik – barkamollikka eltadi. “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. -T.: Adolat 2011, 7-bet.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent–2021. 421-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” PF-5618-sod Farmoni (<https://lex.uz/ru/docs/-4149765>)
4. М.Н.Абдуллаева, Г.Ф.Фаффарова, Г.О.Жалалова. фанлараро ёндашув-нинг мураккаб тизимларни тадқиқ этишдаги имконият ва истиқболлари. Монография. Тошкент. “НОШИР” 2020. 5-бет. (184 б)
5. Jacobs H.H. The Interdisciplinary Concept Model: Theory and Practice (Text) / H.H.Jacobs, J.H.Borland // Gifted Child Quarterly. – 1986. – №4. – P.159-163.
6. Мирский Э.М. Междисциплинарные исследования (Текст)/ Э.М.Мирский // Новая философская энциклопедия. – М.: Мысль, 2001. Т.2. – С.518